

MOYLI EKINLAR DONINI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Amanova Muxabbat Abdugafforovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada moyli ekinlar doni ishlab chiqarish xarajatlari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Xarajatlarni hisobga olish usullarining xorij tajribasi o'rganilgan. Moyli ekinlar doni ishlab chiqarish xarajatlari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moyli ekinlar doni, ishlab chiqarish xarajatlari, xarajatlar hisobi, tannarx, usul, xalqaro standartlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования учета себестоимости производства масличных культур на основе международных стандартов. Изучен зарубежный опыт применения методов учета затрат. Сделаны выводы, разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию учета себестоимости производства масличных культур на основе международных стандартов.

Ключевые слова: масличные культуры, себестоимость производства, учет затрат, себестоимость, метод, международные стандарты.

Abstract. This article examines the improvement of oilseed production cost accounting based on international standards. International experience in applying cost accounting methods is examined. Conclusions are drawn, and proposals and recommendations are developed for improving oilseed production cost accounting based on international standards.

Keywords: oilseed crops, production cost, cost accounting, cost, method, international standards.

Kirish. Boshqaruv hisobi korxonalar uchun nafaqat moliyaviy natijalarni baholash, balki ularning samaradorligini oshirishda ham muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv hisobining eng asosiy vazifalaridan biri bu - xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdir. Xalqaro amaliyotda, xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlash bo'yicha turli usullar ishlab chiqilgan va ular ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishda katta ahamiyatga ega. Xorijda foydalaniladigan usullarning ichida dunyo miqyosida keng tarqalgan va ko'plab korxonalar tomonidan qo'llanib kelinayotgan usullardan biri "*faoliyatga asoslangan xarajatlar boshqaruvi*" (*activity-based costing – ABC*)dir. Bu usul korxona resurslaridan samarali foydalanish va mahsulot tannarxini kamaytirishga ko'maklashadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga

mos hisob-kitob yuritish orqali moliyaviy hisobotlar yanada shaffof, solishtiriladigan va investitsion jozibador bo'ladi - bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijlik iqtisodchi olim, britaniyalik professor K.Druri "xarajatlarni hisobga olishni foydani o'lchash va tashqi hisobot uchun amalga oshiriladigan inventarizatsiya tannarxini baholashda xarajatlarni hisoblash va qayd etish sifatida belgilaydi" [1].

Chet ellik soha mutaxassisi, amerikalik professor Ch.Xorngren "xarajatlarni hisobga olishni ishlab chiqarishni hisobga olish, tashkilot ichida resurslarni sotib olish va ulardan foydalanish xarajatlari bilan bog'liq moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni, ya'ni boshqaruv va moliyaviy hisob uchun ma'lumotlarni to'plash, o'lchash va guruhlash" [2]. deb belgilaydi, bu korxona xarajatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish nuqtai nazaridan moliyaviy va boshqaruv hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.

"Xarajatlar - bu ma'lum bir davrda daromad olish bilan bog'liq kompaniyaning iqtisodiy foydalarining kamayishi. Masalan, xarajatlarga ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar, xodimlarning ish haqi, ijara haqi va aloqa xizmatlari narxi kiradi" [3].

Tadqiqot usullari. Moyli ekinlar doni ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirishga bag'ishlangan mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda iqtisodiy kuzatish, adabiyotlarni va boshqa ilmiy manbalarni o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Moyli ekinlar donida xarajatlar hisobi bo'yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarga to'xtalib o'tamiz. "Enhancing Accounting and Analysis of Oil Grain Production Costs: A Comprehensive Approach" nomli maqolamizda "moyli don ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashda quyidagi zamonaviy elementlar kiritilgan: xarajatlarni to'g'ri taqsimlash metodlari (bevosita va bilvosita xarajatlar); *Activity-Based Costing (ABC)* asosida turli jarayonlar bo'yicha xarajatlarni aniqlash; *Variance Analysis (farqlar tahlili)* orqali budget va real xarajatlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash; *Predictive modeling (bashoratli modellashtirish)* orqali xarajat dinamikasini oldindan baholash; raqamli texnologiya va *ma'lumotlar tahlili* yordamida xarajatlar to'g'risida aniqroq ma'lumot olish yondashuvlari berilgan. Bu yondashuvlar ayniqsa moyli donlar kabi murakkab ishlab chiqarish jarayonlarida xarajatlarni chuqurroq tushunish va boshqarish imkonini beradi" [4].

Xarajatlarni hisobga olishning innovatsion usullariga to'xtalib o'tamiz: Material oqimlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usullari quyidagilar hisoblanadi: "*Material Flow Cost Accounting (MFCA)* - bu global standartlar va xalqaro yondashuvdan biri bo'lib, material va energiya oqimlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qiladi. U mahsulotlar bo'yicha atrof-muhitga ta'sir bilan birga, material chiqindilarining moliyaviy xarajatini ham ko'rsatadi" [5].

MFCA xususan agrar sohaga moslashtirilganda (masalan, *soya moyi*,

kungaboqar yoki paxta doni ishlab chiqarishda), ishlab chiqarish jarayonida chiqadigan ortiqcha materiallar va energiya xarajatlari to'g'risida aniq ma'lumot beradi, shu orqali tannarxni yanada to'g'ri hisoblashni ta'minlaydi.

Rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan usullar korxonalar uchun aniq natijalarni taqdim etmoqda. Ushbu usullarning ichida jahonda keng tarqalgan va ko'plab korxonalar tomonidan qo'llanib kelinayotgan usullardan biri - "standard-cost" va "absorption-costing" usullari hisoblanadi. Bu usullar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning zamonaviy yondashuvlari sifatida korxonalarda tannarxni aniq va samarali kalkulyatsiya qilishga xizmat qiladi. "Standard-cost" usuli bugungi kunda Yevropa va Amerikada keng tarqalgan bo'lib, uning nazariy va amaliy asoslari puxta ishlab chiqilgan. Manbalarga ko'ra, bu usulning g'oyaviy asoschisi sifatida taniqli iqtisodchi G.Emerson ta'kidlanadi, uning amaliyotga tatbiq etilishi esa Ch.Garrison tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu usul ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirishda va normativ asosda boshqarishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. "Standard-cost" usuli yordamida ishlab chiqarish jarayonlari uchun standart me'yorlar belgilanadi va ular real xarajatlar bilan taqqoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonada xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni optimallashtirish imkoniyatini beradi.

ABC va standart xarajat hisoblash usullari korxonaga xarajatlarning mahsulot darajasida to'g'ri taqsimlanishiga imkon beradi, shu orqali tannarxning aniqligini oshiradi. Boshqa tadqiqotlarda oddiy g'alla va boshqa ekinlar ishlab chiqarish korxonalarida ERP va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish orqali hisobotning aniqligi va shaffofligi ortgani qayd etilgan. Texnologiyalar milliy tizimdan xalqaro standartlarga (masalan, IFRS) o'tishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro standartlarga mos hisob-hisobot tizimining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Xalqaro standartlar (xususan IFRS tamoyillari) asosida xarajatlar va tannarxni hisoblash: tashqi investorlar uchun *solishtiriladigan moliyaviy hisobotlar* yaratadi; mahsulot tannarxini *aniq va adolatli* baholashga yordam beradi; resurslardan samarali foydalanish va xarajatlar strukturasini tushunishni osonlashtiradi; voliyaviy qarorlar qabul qilishda *aniq ma'lumotlar* beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar va ilmiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: moyli ekinlar etishtiruvchi korxonalarda *Activity-Based Costing (ABC)* va *Material Flow Cost Accounting (MFCA)* kabi metodlarni joriy etish lozim; ushbu korxonalarda raqamli tizimlar va *ERP / avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini* qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi; xarajatlarni *variance analysis* yordamida monitoring qilish va bashorat modellari orqali xarajat dinamikasini tahlil etish kerak; xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (IFRS) talablariga moslashtirish va buxgalteriya siyosatini shu yo'nalishda takomillashtirish zarur.

Xulosa. Moyli ekinlar donini ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ilmiy-amaliy yangiliklar shuni ko'rsatadiki, *xarajatlarni zamonaviy metodlar bilan to'g'ri hisoblashi (ABC, MFCA), raqamli boshqaruv va xalqaro standartlarga moslashtirilgan hisobotlar tuzish korxonalar samaradorligini sezilarli darajada*

oshiradi. Bu yondashuvlar tannarxni aniqroq hisoblash, resurslardan oqilona foydalanish va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Друри К. Управленческий и производственный учёт. Вводный курс: учеб. для студентов вузов. - М.: Юнити-Дана, 2016. - С. 16-17. - 735 с. - ISBN 978-5-238-00899-6.

2. Хорнгрен Ч.^[англ.], Фостер Дж., Датар Ш.^[англ.]. Управленческий учёт. - 10-е изд. - СПб.: Питер, 2007. - С. 28. - 1008 с. - ISBN 5-94723-174-3.

3. Федеров Д. Как учитывать затраты в управленческом учете. https://www.kontur-extern.ru/info/53953-uchityvat_zatraty

4. *Amonova M.A.* Enhancing Accounting and Analysis of Oil Grain Production Costs: A Comprehensive Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2024. Vol 11, No 8 (2024)

5. Material Flow Cost Accounting. https://en.wikipedia.org/wiki/Material_flow_cost_accounting